UZLUKSIZ TA’LIM JARAYONIDA ELEKTRON TIJORATNI O‘RNI VA AHAMIYATI

Ermonov Sh.I. - GulDPI “Aniq fanlar” kafedrasi stajor o‘qituvchisi
Shuxratova Z.D, Tursunboyeva H.A. - GulDPI“Tabiiy” fakulteti talabalari

Annotasiya. Bu maqolada elektron tijorat tushunchasi, uning asosiy turlari va maktab informatika kursi doirasida ushbu mavzuni o‘quvchilarga bosqichma-bosqich, muammoli yondashuv orqali kiritish usullari yoritilgan. Amaliy misollar va real hayotiy holatlar asosida o‘quvchilarda mavzuga qiziqish uyg‘otish, shuningdek, ularni raqamli iqtisodiyot haqida dastlabki bilimlar bilan qurollantirish muhim ekani asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Elektron tijorat, internet-savdo, onlayn to‘lov, muammoli ta’lim, raqamli iqtisodiyot, maktab informatikasi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida sodir bo‘layotgan raqamli o‘zgarishlar natijasida savdo-sotiq jarayonlari ham elektron shaklga o‘tmoqda. Shu sababli o‘quvchilarga informatikani o‘rgatish jarayonida zamonaviy tushunchalar – jumladan, elektron tijorat haqida ham asosiy bilimlarni berish dolzarb masalalardan biridir. Bu nafaqat ularning raqamli savodxonligini oshiradi, balki kelajakdagi kasb tanlashlariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi

So‘nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keskin rivojlanishi inson faoliyatining barcha jabhalariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, iqtisodiyot sohasida raqamli transformatsiya jarayonlari yangi ish yuritish uslublarini shakllantirmoqda. Elektron tijorat – bu zamonaviy texnologiyalarga asoslangan savdo-sotiq faoliyati bo‘lib, u global bozordagi raqobatbardoshlikni ta’minlash, xarid qilish jarayonlarini soddalashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Ushbu maqolada elektron tijoratning mohiyati, afzalliklari, modellar va tarkibiy qismlari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Elektron tijorat - bu tovar va xizmatlarni internet orqali sotib olish va sotish jarayoni hisoblanadi. U hozirgi kunda zamonaviy biznesning asosiy qismlaridan biriga aylandi. Kompaniyalarga o‘z mahsulotlarini global miqyosda sotish va xaridorlarga qulay xarid qilish imkoniyati bermoqda. Elektron tijoratdagi elektron hujjatlar yuboruvchisini identifikatsiya qilish imkoniyatini beruvchi axborotni o‘z qo‘li bilan imzolangan qog‘ozdagi hujjatlar bilan teng o‘ringa qo‘yiladi. Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan hozirgi zamonda elektron tijorat (e-tijorat) iqtisodiy munosabatlarning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bu jarayonda mahsulot va xizmatlar savdosi an’anaviy savdo usullaridan raqamli platformalarga o‘tayapti. Elektron tijorat – bu internet texnologiyalari vositasida mahsulot va xizmatlarni xarid qilish, sotish hamda ayirboshlash jarayonini ifodalovchi faoliyat shaklidir. U nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirishga, balki vaqt va resurslarni tejashga ham xizmat qiladi.

Elektron tijoratning asosiy afzalliklaridan biri bu — geografik cheklovlarning yo‘qligi va vaqtga bog‘liq bo‘lmagan doimiy faoliyat yuritish imkoniyatidir. Ya’ni,

xaridor istalgan vaqtda, istalgan joydan mahsulotga buyurtma berishi mumkin. Bu, ayniqsa, pandemiya davrida o‘zining dolzarbligini yana bir bor isbotladi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘yicha chakana savdoning sezilarli qismi aynan elektron tijorat orqali amalga oshirilmoqda.

Elektron tijoratning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: internet-do‘konlar, mobil ilovalar, onlayn to‘lov tizimlari, etkazib berish xizmatlari, raqamli marketing va mijozlar bilan aloqa platformalari. Bu komponentlarning o‘zaro uzviy bog‘lanishi elektron tijorat tizimining samarali ishlashini ta’minlaydi.

Masalan, internet-do‘kon mijozlarga mahsulot haqida to‘liq ma’lumot taqdim etsa, onlayn to‘lov tizimi orqali xaridni tez va xavfsiz tarzda amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Yetkazib berish tizimlari esa mahsulotni belgilangan manzilga tez etkazish orqali mijoz ishonchini oshiradi. Shu bilan birga, raqamli marketing vositalari – e’lonlar, ijtimoiy tarmoq reklamalari, e-mail orqali takliflar – xaridorlarni jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, elektron tijorat modeli turlicha bo‘lishi mumkin: B2B (biznesdan biznesga), B2C (biznesdan mijozga), C2C (mijozdan mijozga), C2B (mijozdan biznesga). Har bir model o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘lib, ma’lum iqtisodiy sharoitlarda afzallik beradi. Masalan, O‘zbekistonda ayniqsa B2C va C2C modellar tez sur’atlarda rivojlanmoqda.

Zamonaviy iqtisodiy muhitda elektron tijorat nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratish, balki kichik va o‘rta biznes subyektlarini ham global bozorga olib chiqish imkonini beradi. Shu boisdan, uni rivojlantirish uchun zarur infratuzilmalar – internet qamrovi, to‘lov tizimlari, huquqiy baza va raqamli savodxonlik darajasi yuqori bo‘lishi talab etiladi. Electron tijoratda raqobatga qarshi harakatlarni ham sodir etuvchi shaxslarga ko‘ra quyidagi ikki turga bo‘lishimiz munkin:

1. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan sodir etilgan raqobatga qarshi harakatlar.

2. Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda ular mansabdor shaxslarining raqobatga qarshi harakatlari. Bundan tashqari elektron tijorat haqida qonun va qoidalar ham keltirib o‘tilgan. 1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi va qo‘llanilish sohasi Ushbu Qonunning maqsadi elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Ushbu Qonunning amal qilishi tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladigan davlat xaridlariga; birja faoliyati uchun litsenziyalarga ega bo‘lgan birjalarda tuziladigan kelishuvlarga nisbatan tatbiq etilmaydi. 2-modda. Elektron tijorat to‘g‘risidagi qonunchilik. Elektron tijorat to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining elektron tijorat to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi. 3-modda. Asosiy tushunchalar. Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi. raqamli mahsulotlar - intellektual mulk obyektlarining elektron ko‘chirma nusxalari (raqamli tovarlar), shuningdek elektron axborot muhitida moddiy natijaga

ega bo‘lmagan muayyan harakatlarni bajarish yoki muayyan faoliyatni amalga oshirish, shu jumladan “bulutli texnologiyalar”ni (raqamli xizmatlarni) olishga hamda ularga obuna bo‘lishga doir xizmatlar; elektron savdo maydonchasi - tovarlar (ishlar, xizmatlar) oldi-sotdisini masofadan turib amalga oshirish imkonini beruvchi axborot tizimi; elektron savdo maydonchasining operatori - elektron tijorat ishtirokchilariga elektron savdo maydonchasi xizmatlarini ko‘rsatuvchi yuridik shaxs; elektron tijorat - tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tadbirkorlik faoliyati doirasida axborot tizimlaridan foydalangan holda elektron savdo maydonchasi orqali tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladigan oldi-sotdisi; elektron tijorat operatori - elektron tijoratda elektron hujjatlar va elektron xabarlar aylanishi bilan bog‘liq xizmatlar ko‘rsatuvchi yuridik shaxs;

Elektron tijorat tushunchasini o‘rganish va uni amaliyotda qo‘llash zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas tarkibiy qismidir. Bugungi globallashuv sharoitida biznes jarayonlarining raqamli transformatsiyasi orqali xarid qilish, to‘lov qilish, etkazib berish kabi bosqichlar sezilarli darajada soddalashmoqda. Elektron tijoratning tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu tizim samaradorlik, vaqt tejalishi, qulaylik va xaridor ehtiyojlariga moslashuvchanlik nuqtai nazaridan an’anaviy savdo usullariga qaraganda ustunlikka ega.

Mavzuni yoritishda uning nazariy asoslari – tijorat modellari, texnologik infratuzilma, huquqiy muhit va axborot xavfsizligi muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, yosh avlodni bu boradagi bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ularning raqamli iqtisodiy muhitga moslashuvini ta’minlaydi. Shuningdek, elektron tijorat asoslarini ta’lim jarayonida yoritish orqali o‘quvchilar iqtisodiy fikrlash, tadbirkorlik ko‘nikmalari va innovatsion yondashuvlarni shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, elektron tijorat nafaqat zamonaviy savdo tizimi, balki raqamli iqtisodiyotni shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir. Uni chuqur o‘rganish, hayotiy misollar orqali tahlil qilish va o‘quvchilarga tushunarli tarzda etkazish orqali iqtisodiy savodxonlikni oshirish, raqamli muhitda faoliyat yurita oladigan etuk mutaxassislarni tayyorlash mumkin bo‘ladi. Shu bois bu mavzuni o‘z vaqtida va chuqur yoritish ilmiy-ammaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirov R., Karimov B. Elektron tijorat asoslari. – Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA”, 2020.

2. Mamatqulov M. Raqamli iqtisodiyot va elektron savdo tizimlari. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021.

3. Muhammadjonov A.S. Axborot texnologiyalari va elektron biznes. – T.: “Sharq”, 2019.

4. Turakulov A.S. Elektron tijorat va Internet marketing. – Toshkent: “Iqtisodchi”, 2022.

5. Laudon K.C., Traver C.G. E-commerce 2023: Business, Technology, Society. – Pearson Education, 2023.

6. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi – Elektron savdo faoliyatini yuritish tartibi (ruxsatnomalar va soliq solish). www.soliq.uz